

YANGI IJTIMOIIY-IQTISODIY JARAYONLARDA O‘ZBEK TEATRI BOSHQARUVI



Umarov Kamoliddin Xusniddin o‘g‘li,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “San‘atshunoslik
va madaniyatshunoslik” kafedrasida katta o‘qituvchisi,
San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Istiqlool davri O‘zbek teatr san‘atining o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy tendensiyalari, jamiyat madaniy hayotidagi o‘rni va ustuvor-vazifalar, menejment hamda marketing masalalari, teatrlarning repertuarlari, spektakllarning tahlili asosida teatr san‘ati sohasida ro‘y bergan transformatsiya va modernizatsiya jarayonlarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu maqolada yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda o‘zbek teatri boshqaruvi to‘g‘risida tahliliy fikrlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, o‘zbek teatri, boshqaruv, marketing, transformatsiya, integratsiya, repertuar, spektakl, jamiyat, innovatsiya.

Аннотация. Особенности узбекского театрального искусства периода независимости, его основные тенденции, роль и приоритеты в культурной жизни общества, вопросы менеджмента и маркетинга, репертуары театров, исследование процессов трансформации и модернизации в области театрального искусства на основе анализа спектаклей сегодня имеет актуальное значение. В данной статье представлены аналитические взгляды на управление узбекским театром в новых социально-экономических процессах.

Ключевые слова: Социально-экономические процессы, узбекский театр, управление, маркетинг, трансформация, интеграция, репертуар, спектакль, общество, инновации.

Annotation. The peculiarities of Uzbek theatrical art of the period of independence, its main trends, role and priorities in the cultural life of society, issues of management and marketing, theater repertoires, research of the processes of transformation and modernization in the field of theatrical art based on the analysis of performances is of urgent importance today. This article presents analytical views on the management of the Uzbek theater in new socio-economic processes.

Keywords: Socio-economic processes, Uzbek theater, management, marketing, transformation, integration, repertoire, performance, society, innovation.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, madaniy hayotimizning muhim sohalaridan biri bo‘lgan teatr san‘atida ham tub islohotlar yuz berdi. Xususan, teatrlarning ma‘muriy, boshqaruv faoliyatida bir qancha o‘zgarishlar, yangiliklar amalga oshirildi. Bu jarayon mustaqil O‘zbekistonning madaniy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, teatrlarning tizimli rivojlanishi, ijodiy samaradorligini oshishi, yangi mafkuraviy talablar va bozor iqtisodiyotiga moslashishi singari dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo etardi.

Teatr sintetik bo‘lib adabiyot, musiqa, raqs, tasviriy-amaliy san‘at hamda boshqa san‘at turlari mujassamlashgan holda namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining tezkorlik bilan kundalik turmushimizga kirib kelishi bilan, teatrning ijtimoiy xususiyati tobora

ortmoqda. Teatr san'atining aynan sintetik tabiati va ko'p komponentlilik uni boshqarishning eng murakkab obyektlaridan biriga aylantirdi. Teatr boshqaruvining murakkabligini yana bir sababi, teatr faoliyatining bugungi kungacha tarixan shakllangan tashkiliy shakllarini xilma-xilligidir.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo'liga o'tar ekan, rivojlanishning evolyutsion yo'lini tanladi. Bu islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni, bozor qonuniyatlarini tadrijiy izchillikda yuzaga chiqarishni taqozo etardi. Mamlakatda erkin, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada san'at va madaniyatning turli sohalarida ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlandi. "Ijodiy jamoalar yagona sovet madaniyatini tuzish kabi soxta metadologiya iskanjasidan xalos bo'lib, o'z faoliyatlarini o'zlari tashkil etishga kirishdilar. Ya'ni, mustaqillik tufayli chinakam ijodiy erkinlik yuzaga keldi"[1].

Darhaqiqat, sovet davrida markazlashgan boshqaruvga asoslangan teatr san'ati ijodiy va g'oyaviy jihatdan ham cheklangan edi. Mustaqillik esa teatrlarga to'la ma'noda erkinlik berdi. Buning natijasida boshqaruv strukturasida ham o'zgarishlar kuzatildi. Respublikadagi mavjud teatrlar faoliyatini modernizatsiya qilish, boshqaruvga yangicha uslub va innovatsiyalarni olib kirish, teatr menejmenti va marketingini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Xo'sh, mustaqillik yillari teatr boshqaruvidagi islohotlar aynan qaysi omillarda namoyon bo'ldi?

Birinchidan, teatrlarni boshqarishda sovet davridagi an'anaviy tajribadan butkul voz kechilmagan bo'lsa-da, endilikda boshqaruvning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan normalaridan foydalanish, boshqaruv strategiyasini ijodiy va moliyaviy masalalar bilan uyg'unlikda olib borish, teatrning tashkiliy tuzilmasini optimallashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, teatrdan direktor, badiiy rahbar, bosh rejissyor, adabiy bo'lim mudiri singari shtat birliklarining asosiy vazifalari belgilandi.

Ikkinchidan, teatr boshqaruvini tashkil etishda bozor iqtisodiyoti talablari bilan birga davrning ijtimoiy-mafkuraviy xususiyatlarini hisobga olish, milliy qadriyatlarga tayanish ham ustuvor ahamiyat kasb etdi. Ya'ni, boshqaruvda o'zbek xalqi va madaniyatining o'ziga xos jihatlari hisobga olish, milliy dunyoqarashga urg'u berish zarur o'rin tutdi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng teatrlar boshqaruvini tizimli yo'lga qo'yish, ularning ijodiy faoliyatini milliy istiqlol g'oyasi va qadriyatlarimizga hamohang tarzda shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. Ya'ni, sovet tuzumi davridagi boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik shaklidan voz kechish, boshqaruv mexanizmining yangi standart va mezonlarini joriy etishga alohida ahamiyat qaratildi. Albatta, bu jarayon oson kechmadi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Istiqlol yillari o'zbek teatrida yuz bergan boshqaruv islohotlari xususida teatrshunos Esonboy O'rinov shunday qayd etadi: "Mustaqillikning dastlabki yillarida teatrlarning ma'muriy boshqaruvida sovet davridagi tizimdan butkul voz kechilmadi. Boisi o'sha davrda boshqaruv mexanizmi ancha puxta ishlab chiqilgan edi. Yangi davrda boshqaruv bo'yicha o'zgarishlarni amalga oshirish uchun muayyan muddat talab qilinardi. Qolaversa, bozor iqtisodiyotidek murakkab davr teatrlarning ijodiy va ma'muriy faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ko'p teatrlarimizda shtat birliklari qisqarib ketdi. Musiqali teatr, xor, orkestr, balet truppalari qisqarishlar yuzaga keldi. Ana shunday vaziyatda teatrlar boshqaruvini tizimli va maqsadli yo'lga qo'yish g'oyat zarur vazifa edi. "O'zbekteatr" ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyat ko'rsatishni boshlagach, bu masalalar asta-sekin hal etildi. Tashkilotda teatrlar faoliyatini ijodiy, tashkiliy va iqtisodiy tarafdin boshqarish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi"[2].

Yurtimizdagi teatrlarning aynan boshqaruv strukturasida ko'plab muammolarga duch kelayotganligi va uning yechimini izlash masalariga alohida to'htalib o'tish lozim. Masalan, teatr direktorlarining boshqaruvga oid bilimlari va malakalari yetarli emas, kadrlar bilan bog'liq masalalar ham to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, marketing masalasi judayam sust darajada,

tijoratlashtirishni yanada rivojlantirish va xorijiy tajribalarni o'rgangan holda uni amaliyotga joriy qilish kabi masalalar muhim hisoblanadi. Teatrlar va uni boshqarayotgan rahbarlar – direktor, bosh rejissorlarning faoliyatini ijobiy baholash mumkin, lekin o'ylaymanki bu yetarli emas. To'g'ri, har yili rejaga muvofiq ma'lum bir spektakllar sahnalashtiriladi, ammo statistik ma'lumotlarga ko'ra teatrlarga yil davomida spektakl tomosha qilish uchun keluvchilar soni juda kam foizda. Yangi 399-son qarorda aynan teatrlarning reytingi e'lon qilinishi borasidagi yangilik ham o'ylaymanki teatrlarning sog'lom raqobat asosida faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Katta reja va maqsadlarni o'ylab shunga qarab intilish, tinmay izlanish kerak. Direktor teatrning moddiy texnik bazasini yaxshilash, yosh iste'dodli kadrlarni kashf qilish, tijoratlashtirish masalasini yo'lga qo'yish, gastrol safarlarini amalga oshirish kabi tashkiliy masalalarni hal etmog'i kerak.

Badiiy rahbar esa ijodiy tomondan teatr nufuzini oshirish, jamiyat va xalqimizga aynan bugungi kunda zarur bo'layotgan, ma'naviy ozuqani berishga mos spektakllarni sahnalashtirish ustida o'ylashi kerak.

O'zbek teatri tarixiga nazar tashlasak, barcha davrlarda ham teatr san'atini boshqarish, nazorat qilish va undan o'z mafkurasi yo'lida foydalanish hukumat uchun dolzarb ahamiyat kasb etganiga guvoh bo'lamiz. "1917-yil oktabr to'ntarishi Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lgan o'lkalar, shu jumladan, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida ham keskin burilish davrini boshlab berdi. O'lkadagi taraqqiyparvar ziyolilar mamlakat taraqqiyoti yo'lida faol harakat qildilar. Ushbu jarayonda madaniy masalalar ham ularning e'tiboridan chetda qolmadi. Madaniyatning ajralmas bo'g'ini bo'lgan teatr sohasi sovet tuzumining o'rnatilishi bilan yangi ko'rinishda targ'ibot-tashviqot ishlarining muhim bo'lagi sifatida asosiy o'ringa chiqdi"[3]. Darhaqiqat, Turkistonda sovet hukumati o'rnatilgandan keyin teatr truppalari to'liq davlat ixtiyoriga o'tdi, sohaga doir qator qaror va buyruqlar qabul qilindi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – teatr san'atini qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish, xalq orasiga keng tatbiq etish va shu orqali kommunistik tuzum mafkurasini ilgari surish edi. Sovet hokimiyati o'z g'oyalarini targ'ib qilish va xalq ongutafakkurini boshqarishda teatr san'ati g'oyat zarur va qudratli mafkuraviy qurolga aylanishini anglab yetdi.

1936-yilga kelib, Turkistonda san'at ishlari boshqarmasi tashkil etiladi. Shu vaqtga qadar teatr san'atiga tegishli rasmiy hujjatlar tarqoq holatda bo'lib, boshqarma tashkil etilgach, bu jarayon tizimli holatga keladi. Boshqarma mintaqa hududidagi barcha teatr truppalari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

1953-yilga kelib, boshqarma Madaniyat vazirligining San'at ishlari bosh boshqarmasi sifatida qayta tashkil etiladi. Ushbu boshqarmada teatr san'atiga doir yillik rejalar, hisobotlar, majlis bayonnomalari va boshqa rasmiy hujjatlar saqlanadi. Mazkur hujjatlar teatr san'ati hukumat tomonidan kuchli nazorat qilingani, doim diqqat-markazida bo'lganidan dalolat beradi.

Xo'sh, istiqlol yillari o'zbek teatri boshqaruvida sovet davridan farq qiluvchi qanday o'zgarishlar kuzatildi? Professor N.Sayfullayev ayni masala yuzasidan mulohaza yuritarkan, shunday yozadi: "Yuqoridan beriladigan ko'rsatmalar, taftish qilishlar va umumsovet madaniyati tazyiqi ostida ijod qilishga ko'nikma hosil qilgan ba'zi teatr jamoalari erkinlik sharoitida nima qilishlarini bilmay gangib qoldilar. Mustaqillikning birinchi o'n yilligida bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat qaramog'idagi teatrlar sonini qisqartirishni emas, balki teatrlarning yaxshi an'alarini saqlagan holda faoliyatlarini butkul qayta tiklash, o'zgartirish asosiy masalalardan biri bo'ldi"[4]. Darhaqiqat, sovet tuzumi yillari O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotining deyarli barcha jabhalari yuqoridan, ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarilgan. Respublikadagi mavjud teatrlarning repertuari sovet ideologiyasi va sotsialistik realizm qonuniyatlariga muvofiq kelishi, davrning ijtimoiy-mafkuraviy talablariga javob berishi lozim edi. "Xullas, boshqaruv har

tomonlama izdan chiqqan, teatrlarda ijodiy muhit buzilib, an'analar yo'qolgan, parokanda ahvolga kelib qolgan bir zamonlar edi. Jamiyatdagi sarosimalik teatrlar repertuarida ham o'z aksini topa boshladi. O'sha davr kayfiyatini o'ziga to'liq singdirgan siyosiy-publitsistik xarakterdagi pyesalar butun sobiq ittifoq teatrlari bo'ylab aylanib yurdi"[5]. Shunday murakkab davrda ijod qilgan bo'lishiga qaramay, teatrlarimiz milliy va jahon dramaturgiyasining mumtoz namunalarini muvaffaqiyatli sahnalashtirdi, o'zbek sahnasining abadiyatga daxldor namunalari yaratildi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng teatrlar boshqaruvini tizimli yo'lga qo'yish, ularning ijodiy faoliyatini milliy istiqlol g'oyasi va qadriyatlarimizga hamohang tarzda shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. Ya'ni, sovet tuzumi davridagi boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik shaklidan voz kechish, boshqaruv mexanizmining yangi standart va mezonlarini joriy etishga alohida ahamiyat qaratildi. Albatta, bu jarayon oson kechmadi va bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 22-noyabr sanasida e'lon qilingan PQ-399-sonli Qarori[6]da 2025-yildan Respublikamizda teatrlarning milliy reytingi tuzilishi hamda har yili 27-mart — Xalqaro teatr kunida e'lon qilib borilishi ta'kidlandi.

Shuningdek, qarorda teatrlar boshqaruvi va iqtisodiy faoliyatiga doir bir qator vazifalar belgilangan bo'lib, ularning amaliy ijrosi milliy teatr san'ati taraqqiyotiga xizmat qilishi shubhasiz. 2025-yildan boshlab quyidagilar belgilandi:

Yurtimizdagi teatrlar faoliyati, sahnalashtirilayotgan spektakllarni reklamasi uchun ketadigan sarf-xarajatlarini qoplash uchun davlat buyurtmasi bilan asarlarni yaratish maqsadida rejaga kiritilgan byudjet pullarining 10 foizigacha miqdorda mablag'ni yo'naltirishga;

teatrning asosiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda savdo nuqtalarini, pulli xizmatlar ko'rsatish shoxobchalarini, shu jumladan, reklama vositalarini joylashtirishga, tashrif buyuruvchilar uchun "Sahna ortiga sayohat" mavzusidagi ekskursiyalarni tashkil etishga;

Respublika teatrlarinig brendini ishlab chiqish, faoliyat jarayonlarini yoritish, menejment va marketing orqali pullik xizmatlarni yo'lga qo'yishda xususiy sektor xizmatlaridan foydalanish yo'lga qo'yiladi.

O'zbekiston davlat yoshlar teatri hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatriga moliyaviy, ijodiy va tashkiliy masalalarni mustaqil hal qilish vakolati 2025-yildan boshlab 2026-yil oxiriga qadar huquqiy eksperiment sifatida berildi. Bunday islohotlarni sohadagi o'ziga xos yangiliklardan biri desak, adashmagan bo'lamiz. Zero, teatrlarni o'zini-o'zi moliyalashtirish, iqtisodiy ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lishi ularning boshqaruv jihatidan takomillashiga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyot ro'yxati:

1. Madaliev A. Bozor iqtisodiyoti va qo'g'irchoq teatri // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, Vol 2. Iss 4. 2021. – B.18.
2. Teatrshunos Esonboy O'rinov bilan suhbat. – Toshkent. 2024-yil, iyun.
3. Nazarova S. XX asr 20-30-yillaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zbek sahna san'atiga ta'siri. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2024. – B.10.
4. Sayfullayev N. Yangi davr O'zbekiston teatri: rivojlanish muammolari va izlanish jarayonlari. – Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2011. – B.122-123.
5. Rizayev O. "Sahnada zamon ruhi". San'atshunoslikning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami 2024. B.12.

6. “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-399 son qarori. Lex.uz
7. Umarov, Kamoliddin. "NATIONAL AND UNIVERSAL CHARACTERISTICS OF UZBEK THEATER DURING GLOBALIZATION." *Research Focus* 3.5 (2024): 327-330.
8. Rustamov, V., & Umarov, X. (2023). Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalalari. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 496-502.
9. Umarov, K. (2025). THE ROLE OF UZBEK THEATER IN MODERN SOCIO-CULTURAL PROCESSES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 968-972.
10. Umarov, K. X. (2024). O ‘ZBEK TEATRINING RIVOJLANISHIDA IJTIMOY-MADANIY JARAYONLARNING O ‘RNI. *Inter education & global study*, (7), 459-467.
11. Ганиева, Э. Р. (2018). Трансформация коммуникативной функции кино в эпоху глобализации. In *Культурология, искусствоведение и филология: современные взгляды и научные исследования* (pp. 8-12).
12. Ganieva, E. R. (2022). Genesis and Evolution: From Multi-Part TV Film to TV Series. *International Journal on Integrated Education*, 5(4), 286-290.
13. Ganieva, E. R. (2015). Prospects of development and modernization of cinema reproduction channels in Uzbekistan. in the world of science and art: questions of Philology, art criticism and cultural studies. no. 43.
14. Nazarbai, K. A. (2023). NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2, 65-70.
15. QOLQANATOV, A. (2024). MA’DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN. *News of UzMU journal*, 1(1), 1.
16. M. B. Yuldasheva, & A.N. Qolqanatov (2024). KADRLAR POTENSIALI IJTIMOY-MADANIY SOHADA TASHKILOT FAOLIYATI SAMARADORLILIGINI OSHIRISHSHNING YETAKCHI OMILI SIFATIDA. *Inter education & global study*, (8), 58-68.